

BOBURIYLAR SULOLASI DAVRIDA JALOLIDDIN AKBARSHOHNING HUKMIRONLIGI

Kamolova Muqaddasxon Nabijon qizi

Namangan viloyati Uychi tumani

12-IDUMning Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada uzoq yillar mobaynida dushmanlik munosabatlarida bo'lgan etnik va diniy guruhlarini murosaga keltirishi haqida, Imperiya Akbarshoh davrida Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tarix, imperiya, sulola, podshoh, xalq, hukmronlik, hokimiyat, siyosat, tinchlik, osoyishtalik.*

Jaloliddin Muhammad Akbar ibn Nosiriddin Humoyun ibn Zahiriddin Muhammad Bobur (1556-1605 y) Hindistonda Boburiylar imperiyasini boshqargan yirik siyosatdon mohir-u nodir bo'lib u tom ma'noda Boburiylar davlatini imperiyaga aylantirgan. Hindistonni birlashtirgan odil podshoh edi. Akbarshohning hukmdorlik davrlari haqida so'zlar ekanmiz Hind xalqi bilan bir tan-u jon bo'lishga harakat qilgan hukumdorni ko'ramiz Akbarshoh ajdodlari o'gitlariga qat'iy amal qilgan. Bobosi Zahiriddin Muhammad Boburning 1529-yil 11-yanvarda Agra yaqinidagi Nilufar bog'ida turganida o'g'li Nosiriddin Humoyunga qarata yozilgan vasiyatnoma saqlanib qolgan. Boburiylar sulolasi – Bobur Mirzo asos solgan sulola. Temuriylar sulolasining bevosita davomi. Sulolaning boshlanishi sifatida Bobur Farg'ona taxtiga o'tirgan (1494), yo Qobulda hokimyatni qo'lga olgan (1504), yoki Bobur nomiga Hindiston podshohi sifatida xutba o'qilgan (1526) sana qaralishi mumkin. Sulola rasman uning so'nggi vakili Bahodirshoh II taxtdan inglizlar tomonidan mahrum etilgan 1858 yilgacha davom etgan. Boburiylar hukm surgan 300 yildan ortiq davr mobaynida sulola tarixida buyuk ko'tarilish va inqiroz davrlari bo'lgan.

Tarixda “Buyuk Akbar” nomi bilan mashhur bo'lgan Jaloliddin Muhammad Akbarshoh davrida musulmon va mahalliy xind bolalari bir xil umumta'lim maktablarida o'qib, barcha fanlardan bir xil darsliklardan foydalanishini joriy etgan. U etnik va diniy guruhlarini murosaga keltirib tinchlik va osoyishtalikni ta'minlagan, Erondan Birmagacha, Himolay va Hindukush tizmalaridan Godavari daryosi qirg'oqlarigacha yastanib yotgan ulkan imperiyani boshqarishning samarali tizimini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, moliya sohasidagi islohotlar, boshqaruv idoralari ish faoliyatini yagona talablar asosida nazorat qilgan beqiyos aql-zakovat va kuchli iroda sohibi, hamma uchun sevimli shoh bo'lgan shaxsdir.

Akbarshoh 50 yillik (1556-1605) hukmdorlik davrida otasidan qolgan kichik bir mamlakatni ulkan saltanatga aylantirdi. Boburiylar davlati shimolda Balxdan tortib janubda Godovari daryosigacha, g'arbda Arab dengizidan sharqda Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan hududni qamragan.

Uzoq yillar mobaynida dushmanlik munosabatlarida bo'lgan etnik va diniy guruhlarini murosaga keltirish, yurtida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash davlat rahbaridan juda katta noyob qobiliyatni talab qilar edi. Akbarshoh aynan shunday qobiliyat egasi bo'lgan buyuk davlat arbobi va lashkarboshidir. Uning hukmronligi davrida voyaga yetmagan bolalarni uylantirish va turmushga berish man etildi. Er vafot etsa xotinini uning jasi bilan birga qo'shib olovda kuydirilishigini chek qo'yildi, beva ayollarning qayta turmush qurishlariga ruxsat etildi. U boshqargan davlatda har bir fuqaro uning g'amho'rlikini sezib turardi. Akbar Agra hamda Fotihpur, Sekri, Lohur, Dehli va boshqa shaharlarda saroylar, me'moriy inshootlar va bog'lar yaratgan, ilm-fan, san'at va dehqonchilikni rivojlantirgan, asosiy yo'llarni ta'mirlash va xavfsizligini ta'minlash, karvonsaroylar qurish, dengiz yo'li orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish, xajga borishni qulaylashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirgan. Bobur va Humoyun kabi Amir Temur maqbarasini ta'mirlash uchun Akbar bir filga yuklangan tilla yuborgan. Abdurrahim Xonixononga "Boburnoma" asarining fors tiliga mukammal tarjimasini yaratishni topshirgan.

Imperiya Akbarshoh davrida Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan. Humoyunning o'g'li Akbarshoh 1556- yilda otasi taxtini egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqnira'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatadi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i - «Buyuk Akbar» deb atashgan. Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyukshohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi. Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikcha erishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556- yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. 1559-yilga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari - afg'onlarning Sursulolasi butunlay yanchib tashlandi. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan. Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor og'il, g'amxo'r ota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning turmush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan. U boshqa din vakillariga nisbatan hamadolatli siyosat yuritgan. Akbarshoh musulmon

bo`lmaganlardan undiriladigan «jizya» solig`inibekor qilgan.Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududidayagona savdo solig`i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliqundirilgan. Davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat`i nazar, shaxsningsalohiyatiga qarab taqsimlangan.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.Ermatov F., Haydarov S. TARIX FANINI O`QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O`RGANILISHI //Scientific progress. – 2021. – T.– №. 6. – C. 70-72.
2. Toshev S. Tarix fanini o`qitishnda zamonaviy yondashuvlar //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. Special Issue 1. – C. 6-14.
3. Mengboyev S. N., Haydarov S. TARIX FANINI O`QITISHDA URARTU PODISHOLIGINING O`RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 86-88.